



BOSHLANG'ICH SINF ONA TILI DARSLARIDA IJODKORLIKNI RIVOJLANTIRUVCHI MASHQLAR

**Azimjonova
 Nargiza Xusniddin
 qizi**

Qo'qon Universiteti BT 4-kurs talabasi

Abstract

Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining ona tili darslarida ijodkorlikni oshirish, inavatsion metodlardan foydalanish va samaradorlikni ta'minlashning ahamiyati xususida fikr yuritilgan. Ijodkorlik o'quvchilarga kompetentlikni oshirish va ijodiy o'ylashni rag'batlantirish uchun kritik muhim mashiqlar toifasiga kiradi. Bu mashiqlar, o'quvchilarni savol berishga, savollarga javob qidirishga, o'zlarining fikrlarini ifodalashga, talqin qilish jarayonlarini o'rganishga yordam beradi. Ijodkorlikni rivojlantiruvchi mashiqlar orqali o'quvchilarda izohlash, savollarga o'ylab javob berish, o'z fikrlarini erkin bayon qilish konikmalari shakilantiriladi.

Keywords : ta'lif, ijodkorlik, mashq, metodlar, innovatsion texnologiyalar, interaktivlik, mahorat ,ona tili,

Абстрактный

В данной статье рассматривается важность повышения креативности, использования инновационных методов и обеспечения эффективности на уроках родного языка учащихся начальных классов. Креативность является одним из важнейших навыков учащихся для развития компетентности и поощрения творческого мышления. Эти упражнения помогают студентам задавать вопросы, искать ответы на вопросы, выражать свои мысли и изучать процессы интерпретации. Посредством упражнений, развивающих творческие способности, у учащихся формируются умения объяснять, вдумчиво отвечать на вопросы, свободно выражать свои мысли.

Ключевые слова: образование, творчество, упражнение, методы, инновационные технологии, интерактивность, умение, родной язык,

Abstract

This article examines the importance of enhancing creativity, using innovative methods and ensuring effectiveness in primary school students' native language lessons. Creativity is one of the most important skills for students to develop competence and encourage creative thinking. These exercises help students ask questions, seek answers to questions, express their thoughts, and explore interpretative

processes. Through exercises that develop creative abilities, students develop the ability to explain, thoughtfully answer questions, and freely express their thoughts.

Key words: education, creativity, exercise, methods, innovative technologies, interactivity, skill, native language

Mamlakatimizda ta'lim sifati kundan kun yaxshilanib bormoqda bunga sabab ta'lim sohasida amalga oshirilgan islohotlar desak aslo mubolag'a bo'lmaydi . Mustaqil O'zbekistonning ravnaqi uchun olib borilayotgan Iqtisodiy ijtimoiy , madaniy - ma'naviy sohadagi keng ko'lamli ishlar, jamiyat taraqqiyotini ta'minlash, uzluksiz ta'lim tizimini joriy etish, shuningdek ,mustaqil fikr egasi, erkin va ijodkor yosh avlodni tarbiyalab voyaga yetkazishda alohida ahamiyat kasb etmoqda¹ O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida" gi Qonuni va " Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi " ta'limning barcha bo'g'inlarida ona tili o'qitishni ham tashkiliy , ham mazmuniy jihatidan qayta ko'rib chiqishni taqozo etadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi farmoni imzolandi.Farmonga ko'ra, O'zbekiston Respublikasida umumiy o'rta va maktabdan tashqari ta'limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo'naliшlarini belgilash, o'sib kelayotgan yosh avlodni ma'naviy-axloqiy va intellektual rivojlantirishni sifat jihatidan yangi darajaga ko'tarish, o'quv-tarbiya jarayoniga ta'limning innovatsion shakllari va usullarini joriy etish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiysi tasdiqlanmoqda.Konsepsiada quyidagilar nazarda tutiladi:

O'zbekiston Respublikasining 2030 yilga kelib PISA (The Programme for International Student Assessment) O'quvchilarning ta'lim sohasidagi yutuqlarini baholash bo'yicha xalqaro dastur reytingi bo'yicha jahonning birinchi 30 ta ilg'or mamlakati qatoriga kirishiga erishish;

uzluksiz ta'lim tizimi mazmunini sifat jihatidan yangilash, shuningdek, professional kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish; o'qitish metodikasini takomillashtirish, ta'lim-tarbiya jarayoniga individuallashtirish tamoyillarini bosqichma-bosqich tatbiq qilish;usullari va yo'naliшlarini joriy etish;

davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish hisobiga davlat ta'lim tizimida raqobat muhitini kengaytirish;

yoshlar ta'lim-tarbiyasi uchun qo'shimcha sharoitlar yaratishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni o'z ichiga olgan beshta tashabbusni amaliyotga tatbiq etish;

xalq ta'limi tizimida faoliyat ko'rsatishning jozibadorligini oshirish maqsadida umumiy o'rta ta'lim muassasalari xodimlarining mehnatiga haq to'lash, moddiy rag'batlantirish va ijtimoiy himoya qilish darajasini bosqichma-bosqich oshirib borish;

Ma'lumki, boshlang'ich sinf ona tili darslarida o'quvchilarning keng miqyosda mulohaza yuritish va mustaqil fikrlash, qarorlar qabul qilish ko'nikmalari to'liq shakllanmagan boladi. Shu bois , birinchi sinf ona tili darslarida o'quvchilarda asosan mashq ustida ishlash ko'nikmasi shakillantiriladi.Bunda ko'proq o'qituvchi tomonidan bolalar o'zlashtirishi lozim bolgan bilimlarni tayyor holda beradi, o'zi savollar qo'yadi ,savol va topshiriqlarning yechimini topish yo'llarini ham o'qituvchining o'zi

¹ <https://kun.uz/news/2019/04/30/ozbekiston-respublikasi-xalq-talimi-tizimini-2030-yilgacha-rivojlantirish-konsepsiysi-tasdiqlandi-prezident-farmoni>

ko'rsatadi. Bu bilan o'quchilarda yuqori samaradorlikka erishib bolmaydi. Chunki, bugungi kunning talabi o'quvchilarni faol harakatga keltirishdan iborat. Shunday ekan, ona tili mashg'ulotlarida o'quvchilarni qiziqtiradigan birdek o'ziga tortadigan faol harakatga keltiradigan, ularni mustaqil fikirlashga undaydigan, mulohaza yuritishga chorlaydigan mashiqlar va tapshiriqlarni tavsiya etish maqsadga muvofiqdir. Boshlang'ich sinf ona tili darslari o'quvchilarning ta'lif yo'lida muhim bir bosqichni tashkil etadi. Ushbu davrda bolalar nafaqat til bilimlarini o'zlashtirishadi, balki ijodiy fikrlash, o'z his-tuyg'ularini ifoda etish va muloqot qila olish qobiliyatlarini rivojlantirishadi. Ijodkorlik – bu o'quvchilarning individual salohiyatini ochib berish, ularni o'ziga xos fikr va g'oyalar bilan boyitish jarayonidir. Shu bois, ijodkorlikni rivojlantiruvchi mashqlar, dars jarayonida o'quvchilarni faollikka undash, o'qituvchilar esa ijodiy o'qitish metodlarini qo'llashga qaratilgan jarayonlari. Zamnaviy ta'lif tizimida ijodkorlikni rivojlantirishga qaratilgan yondashuvlar muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ta'lif jarayonida an'anaviy usullar o'rniiga interaktiv va ijodiy metodlarni qo'llash orqali o'quvchilarning faolligini oshirish mumkin. Misol uchun, o'yinlar, muammoni hal qilish vazifalari, guruhiy faoliyatlar va ijodiy loyihibar darslarda qo'llanilishi o'quvchilarning fikrlash qobiliyatini kengaytirishga yordam beradi. Bular o'quvchilarga o'z fikrlarini mustaqil ifoda etishga, ijodiy g'oyalar ishlab chiqishga va ularni amalda qo'llashga imkon yaratadi. Ta'lif sohasida amalga oshirilgan yangi islohotlar.

²2017 - 2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi o'rta muddatli istiqbolda davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlarini belgilab bergan eng muhim dasturiy hujjat hisoblanadi. Mazkur hujjat asosida ta'lif sohasiga doir qator islohotlar amalga oshirildi. Ta'lif tizimini xalq bilan muloqot va ilg'or xorijiy tajribalar asosida isloh qilishga asosiy e'tibor qaratildi. Bundan tashqari, 2021-yilda O'zbekiston ta'lif vazirligi tomonidan qabul qilingan yangi o'quv dasturlarida ijodkorlikni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilgan. Ushbu dasturlar ijodiy fikrlash va muammolarni hal qilish qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan bo'lib, ularning maqsadi ta'lif sifatini oshirish va o'quvchilarning global raqobatbardoshligini ta'minlashdir. Ijodiy o'qitish jarayonida muhim o'rinn tutadigan yana bir jihat – o'qituvchilarning o'ziga xos yondashuvidir. O'qituvchilar o'quvchilarning individual xususiyatlarini, qobiliyatlarini va qiziqishlarini inobatga olib, darslarni yanada jozibador va qiziqarli qilishlari lozim. Interaktiv mashqlar, ijodiy muammolar va muhokama qilinadigan mavzular orqali o'qituvchi o'quvchilarni ta'lif jarayoniga jalb qilishi va ularning ijodkorligini rag'batlantirishi mumkin. Shu bilan birga, o'quvchilarga o'z fikrlarini erkin ifoda etish imkonini beradigan muhit yaratish, ularning o'zini ishonchli his qilishlariga yordam beradi. Bularning barchasi, boshlang'ich sinf ona tili darslarida ijodkorlikni rivojlantiruvchi mashqlarni o'tkazishning ahamiyatini oshiradi. O'quvchilar nafaqat til bilimlarini egallash, balki o'z fikrlarini mustaqil ravishda shakllantirish, ijodiy g'oyalarini amalga oshirish va jamoaviy ish faoliyatini rivojlantirish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Shunday qilib,

² https://namdu.uz/media/Books/pdf/2024/06/07/NamDU-ARM-5037-Umumiy_pedagogika_nazariyasi_va_amaliyoti.pdf [10 bet]

boshlang'ich sinfda ijodkorlikni rivojlantirishga qaratilgan mashqlar ta'lim jarayonini yangilash, zamon talablariga moslashtirish va o'quvchilarning shaxsiy o'sishini ta'minlashda muhim rol o'yndaydi.

Boshlang'ich sinflarda ona tili darslarida olib borgan izlanishlarimiz natijasida Ijodiy tapshiriqlar yaratishning quydagi metodik usullarini ishlab chiqdik:

³1.O'quvchilarni bayon qilinayotgan mavzudagi umumiylilik va xususiylikni aniqlash maqsadida berilgan mashqlarni tahlil qilish va qiyoslash. Masalan, 3-sinfda "O'zak va o'zakdosh so'zlar" mavzusini o'tayotganda gul, gulla, gulzor, guldon so'zidan gap tuzish bo'yicha o'quvchilarga topshiriq beriladi. O'quvchilar ushbu so'zlarning ma'no xususiyatlaridan kelib chiqib topshiriqni bajarishga kirishadi.

2. Tanish topshiriqni hal etishda o'quvchilar oldiga yangicha yondashuvni talab etadigan amaliy topshiriqlarni qo'yish. Masalan, 1-sinf o'quvchilari hali unli va undosh tovushlar bilan tanishmay turib, so'z necha bo'g'indan iboratligini faqat talaffuz orqali topish topshirig'i beriladi. Unli va undosh tovushlar bilan tanishgach esa, unli tovushlar bo'g'in hosil qilishini bilib oladilar va shunga qarab so'zlarning nechta bo'g'indan iborat ekanligini aniqlaydilar.

3. O'quvchilarning amaliy topshiriqlami mustaqil bajarishda yuzaga keluvchi hayotiy vaziyatlardan foydalanish, ularni bajarish va tahlil qilish. Masalan, 1-sinfda bo'g'in ko'chirish qoidalari bilan tanishtirishda, bo'g'in ko'chirishning zarurligi misol tarzida keltiriladi. Ya'ni sarkarda so'zining keyingi ikki bo'g'ini qatorga sig'may qoldi. Nima qilish kerak? Tarzida savol bilan murojaat qilinadi. Ijodiy topshiriqlarning bu turlari sharthi ravishda ajratilgan bo'lib, amalda o'quvchilar bir tushunchaning o'zini o'rghanishda faktlarni tahlil qilish va sintez qilishni taqqoslash va umumlashtirish bilan qo'shib olib boradi. Lekin aytib o'tilgan tafakkur usullaridan biri - tushuncha yetakchi o'rinda turadi. Ijodiy topshiriqlar berib bo'lingach, o'qituvchi o'quvchilarni yana fikr yuritishga, ammo endi faraz qilish, muhokama qiliish va xulosalar chiqarishga qaratadi. Bilish muammolarini ilgari surish va hal qilish jarayonlari uzlusiz zanjirga o'xshab qo'shilib ketadi. Chunki ijodiy topshiriqlarni o'quvchilarga berar ekanmiz, bir vaqtning o'zida uni bajarishga kirishamiz. Bu esa, o'z navbatida, yangi topshiriqni keltirib chiqaradi. Ona tili ta'limi jarayonidagi ijodiy topshiriqlar tizimi muommali suhbatlar, fikr yuritish, isbotlash, umumlashtirish, tahlil kabi tafakkurni rivojlantiruvchi mashqlar hisoblanadi. Ijodiy topshiriq mashqlari o'quvchilar topshiriqni bajara oladigan bo'lgandagina qo'llaniladi. Bunday mashqlar, ayniqsa, yuqori sinf darsliklarida ko'p berilgan. Unda berilgan topshiriqni bajarish jarayonida o'quvchilar yangi bilimlar bilan qurollantiriladi. Ijodiy topshiriqlardan yangi mavzuni o'zlashtirish bilan birgalikda bilimlarni kengaytirish va mustahkamlashda ham qo'llash mumkin.

1-mashq: Assotsiatsiya o'yini

Atrofingizga qarang. Qaysi ob'ekt sizning e'tiboringizni tortdi? Aytaylik, stol ustidagi ovoz yozuvchisi. Endi qog'oz va qalam oling va mavzuingizga eng mos keladigan 5 ta sifatni yozing.

Masalan, bizning holatlarimizda: Diktofon...

zamonaviy;

³ [file:///C:/Users/User.AD.155/Downloads/Yuldasheva+Gavxaroy+Baxodirovna%20\(4\).pdf](file:///C:/Users/User.AD.155/Downloads/Yuldasheva+Gavxaroy+Baxodirovna%20(4).pdf) [2 bet]

funktsional;

qulay;

yorug'lik;

Oq.

Bo'ldimi? Davom etaylik. Tanlagan mavzuingizga mutlaqo mos kelmaydigan yana 5 ta sifatdosh yozing. Buni qilish biroz qiyinroq bo'ladi: Diktofon...

zumrad;

qish;

qovurilgan;

ajinlangan.

Mana bizning xayolimizga nima keldi. O'zingizning his-tuyg'ularingizni va atrofingizdagи dunyoni idrok eting va toping zarur ta'riflar. Bir oz ko'proq kuch sarflang va hamma narsa amalga oshadi, asosiysi vazifani bajarilmasdan qoldirmaslikdir. O'tiring va meditatsiya qiling.

2-Mashq Crazy Architect

Qanday qilib me'mor va dizayn rolini sinab ko'rishga qaraysiz, masalan, sizning shahar tashqarisidagi uy? Agar siz umuman chizishni bilmasangiz ham va maktabdagи rasm chizish darslarini dahshat bilan eslab qolsangiz ham, ishoning, tashvishlanadigan hech narsa yo'q. Bu yerda chizish ko'nikmalari muhim emas. Asosiysi, jarayonning o'zi. Sizni ishontira oldikmi? Ajoyib, keyin boshladik.

Birinchidan, qog'ozga istalgan 10 ta otni yozing. Apelsin, vaza, maysazor, suv, pomidor- nima xayolimga kelsa. Tasavvur qiling-a, ushbu 10 ta so'z siz uy qurayotgan mijoz uchun bo'lishi kerak bo'lган 10 ta so'zdir.

Masalan, "Apelsin"- qishloq uyining devorlarini to'q sariq rangga bo'yash, "suv"- uyning oldida sharsharali hovuz yoki kichik favvora bo'lsin, "pomidор"- bular hovuzdagи qizil baliqlar yoki derazalarida polka nuqtalari bo'lган pardalar va boshqalar. Tasavvuringizni ishga soling, ijodkorlikni yoqing. Chizing va haqiqiy hayotda qanday ko'rinishini tasavvur qiling.

3-mashq: Sukunat soati

Xavotir olmang, og'zingizga suv solib, jim bo'lisingiz shart emas. Mashq nomidan ko'riniб turibdiki, siz bu vazifaga atigi bir soat vaqt ajratasiz, lekin siz odatdagи ishlaringizdan va kundalik tartibingizdan chalg'itmasligingiz kerak.

Bu vaqt ichida odamlarga faqat umumiy savollarga javob bering "Ha", "Yo'q" va "bilmayman"... Atrofingizdagи hech kim g'alati narsadan shubhalanmasligi uchun o'zingizni tabiiy tuting. Hech kim siz o'zingiz emasligingiz, kasal ekanligingiz yoki ertalab noto'g'ri oyoqqa turganingiz kabi tassurot qoldirmasligi kerak. Sinab ko'ring, ishonchimiz komil.

Xulosa qilib aytganda maqolada ko'rsatilgan ijodkorlikni rivojlantiruvchi mashqlar boshlang'ich sinf ona tili darslarida o'quvchilarining faol ishtirotini ta'minlaydi va ularning ijodiy salohiyatini oshirishga yordam beradi. Interaktiv dars usullari va ijodiy vazifalar yordamida o'quvchilar o'z fikrlarini erkin ifoda etish, muammolarni hal qilish va yangi g'oyalarni ishlab chiqish qobiliyatlarini rivojlantiradi. Shunday qilib, ta'lim jarayonida ijodiy muhitni yaratish o'quvchilarining shaxsiy va akademik o'sishini ta'minlaydi, bu esa kelajakda ularga yanada muvaffaqiyatli bo'lishga yordam beradi. Boshlang'ich sinf ona tili darslarida

ijodkorlikni rivojlantiruvchi mashqlar o'quvchilarning umumiyligi rivojlanishi uchun muhim ahamiyatga ega. Ta'limgardan ijodiy faoliyat o'tkazish orqali o'quvchilar o'z fikrlarini ifoda etish, yangi g'oyalar ishlab chiqish va muammolarni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantiradilar. Ijodiy mashqlar va interaktiv dars usullari o'quvchilarga ijodkorlikni oshirish, o'zaro muloqotni kuchaytirish va jamoaviy fikrlashni rivojlantirish imkonini beradi. Ushbu mashqlar orqali o'quvchilar, shuningdek, tanqidiy fikrlash va mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatlarini oshirishadi. Dars jarayonida ijodiy muhit yaratish, o'quvchilarning motivatsiyasini oshiradi, ular esa darslarda faollik ko'rsatishga tayyor bo'lishadi. Shu bilan birga, ijodkorlikni rivojlantirishga qaratilgan metodlarni qo'llash o'qituvchilarga o'quvchilarning individual ehtiyojlarini hisobga olish imkonini beradi. Natijada, boshlang'ich sinfda ona tili darslari faqat bilim berish emas, balki o'quvchilarning ijodiy salohiyatini ochish va rivojlantirishga ham xizmat qiladi. Kelajakda bu o'quvchilarning hayotidagi ko'plab sohalarda muvaffaqiyatga erishishlariga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. https://namdu.uz/media/Books/pdf/2024/06/07/NamDU-ARM-5037-Umumiypedagogika_nazariyasi_va_amaliyoti.pdf [10bet]
2. [file:///C:/Users/User.AD.155/Downloads/Yuldasheva+Gavxaroy+Baxodirovna%20\(4\).pdf](file:///C:/Users/User.AD.155/Downloads/Yuldasheva+Gavxaroy+Baxodirovna%20(4).pdf) [2 bet]
3. <https://kun.uz/news/2019/04/30/ozbekiston-respublikasi-xalq-talimi-tizimini-2030-yilgacha-rivojlantirish-konsepsiysi-tasdiqlandi-prezident-farmoni>